



O'ZBEKISTON TASHQI SAVDOSI VA INVESTITSION SHARTNOMALARNING IMZOLANISHI TARIXI

Xakimov Kamronmirzo Xursandbek o‘g‘li

Andijon davlat universiteti

Tarix fakulteti 3-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Abdullayev Bekzod Xusniddin o‘g‘li

O'zbekiston tarixi kafedrasi o‘qituvchisi

Abstrakt: O'zbekiston "Heartland"da joylashgani sababli ham, butun tarixi davomida katta qiziqishlarga sabab bo'lgan, hamda ushbu omil sababli ham savdo yo'llari chorrahasi mamlakatimiz hududidan o'tgan edi. Biroq "Buyuk Geografik kashfiyotlar"dan so'ng savdo yo'llari okeanlarga ko'chdi, bu esa O'zbekistonning savdo iqtisodiy ahvolini yomonlashtirdi. Chor Rossiyasining O'rta Osiyonibosib olib, hududda mustamlakachilik siyosatini olib borishi ham savdo-sotiqqa salbiytasir ko'rsatdi. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng esa hammasi o'zgardi. Endilikda O'zbekiston Respublikasi Jahonning barcha mamlakatlari bilan teng huquqlar asosida, emin erkin savdo qila oladi. Bundan tashqari, chet ellik hamkorlar bilan O'zbekiston hududida investitsion loyihalar amalga oshirilishiga imkoniyatlar yaratilmoqda.

Kalit so'zlar: Savdo, investitsiya, hamkorlik, diplomatiya, erkin savdo, shartnoma.

Abstract: Due to the fact that Uzbekistan is located in the "Heartland", it has caused great interest throughout its history, and because of this factor, the crossroads of trade routes passed through the territory of our country. However, after the "Great Geographical Discoveries", the trade routes moved to the oceans, which worsened the trade and economic situation of Uzbekistan. Tsarist Russia's occupation of Central Asia and its colonial policy in the region also had a negative impact on trade. After Uzbekistan gained independence, everything changed. Now the Republic of Uzbekistan can safely and freely trade with all countries of the world on the basis of equal rights. In addition, opportunities are being created for the implementation of investment projects in the territory of Uzbekistan with foreign partners.

Key words: Trade, investment, cooperation, diplomacy, free trade, contract.

Аннотация: Благодаря тому, что Узбекистан расположен в «Хартленде», он вызывал большой интерес на протяжении всей своей истории, и благодаря этому фактору через территорию нашей страны проходил перекресток



торговых путей. Однако после «Великих географических открытий» торговые пути переместились к Мировому океану, что ухудшило торгово-экономическое положение Узбекистана. Оккупация Средней Азии царской Россией и ее колониальная политика в регионе также оказали негативное влияние на торговлю. После обретения Узбекистаном независимости все изменилось. Теперь Республика Узбекистан может безопасно и свободно торговать со всеми странами мира на основе равноправия. Кроме того, создаются возможности для реализации инвестиционных проектов на территории Узбекистана с зарубежными партнерами.

Ключевые слова: Торговля, инвестиции, сотрудничество, дипломатия, свободная торговля, контракт.

Kirish.

Xalqaro miqyosda mamlakatlar iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim omil hisoblangan savdo va investitsiya omili bugungi kunga kelib har doimgidan ham dolzarb va muhim hisoblanadi. Shu o'rinda jahon bozoridagi raqobatning yuqori ekanligi, hamda barcha davlatlar o'ziga investitsiya jalb qilishga yoki aksincha qulay hududga investitsiya kirgizishga urinayotgan davrda, O'zbekiston ham o'zi uchun jahon bozirida o'rin egallab, uni kengaytirib bormoqda. Jumladan O'zbekiston birinchi navbatda MDH va ShHT doirasidagi davlatlar bilan aloqalarini yo'lga qo'ygan va endilikda ushbu hamkorlikni kuchaytirmoqda va ikkinchi tomondan Yevropa va Amerika qit'asidagi mamlakatlar bilan barcha turdag'i munosabatlarni kuchaytirish barobarida, Afrika va Yaqin Sharqda o'zbek brendi uchun yangi bozorlar ochilmoqda.

Natijalar.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritgan vaqtidan boshlab dunyoning ko'plab mamlakatlari uni tan olib u bilan yaqindan savdo aloqalarini yo'lga qo'yishga intildi. Bular orasida ayniqsa Turkiya, Xitoy Xalq Respublikasi, Janubiy Koreya, Germaniya, Yaponiya singari davlatlar alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Bugungi kunda O'zbekiston tashqi savdosida Xitoy Xalq Respublikasi birinchi o'rinni egallaydi.

Shuni aytish lozimki Xitoy Xalq Respublikasiga 1992-yil Islom Abdug'aniyevich Karimov tashrif buyurganda, hamkorlikning turli sohalari bo'yicha 15 ta muhim hujjatlar imzolandi.

Ular orasida; O'zbekiston–Xitoy qo'shma axboroti, O'zbekiston hukumati bilan XXR o'rtasida «Hamjihatlik to'g'risi»da protokol, savdo–iqtisodiy hamkorlik



bo‘yicha O‘zbekiston–Xitoy hukumatlararo kompaniyasini tashkil etish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi hukumati bilan Xitoy Xalq Respublikasi hukumati o‘rtasidagi bitim, O‘zbekiston Respublikasi hukumati bilan Xitoy Xalk Respublikasi hukumati o‘rtasida ilmiy-texnikaviy hamkorlik to‘g‘risida, Xitoy banki bilan O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat banki o‘rtasidagi banklararo bitim, sarmoyalarni rag‘batlantirish va o‘zaro himoya qilish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi hukumati bilan Xitoy Xalq Respublikasi hukumati O‘rtasida, O‘zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vazirligi bilan XXR tashqi ishlar vazirligi o‘rtasida maslahatlashuv o‘tkazish to‘g‘risida, O‘zbekiston Respublikasi aloqa vazirligi bilan XXR aloqa vazirligi o‘rtasida hamkorlik to‘g‘risidagi, O‘zbekiston Respublikasi fuqaro aviatsiyasi boshqarmasi bilan XXR fuqaro aviatsiyasi boshqarmasi o‘rtasidagi muzokaralar, O‘zbekiston Respublikasi hukumati bilan XXR hukumati o‘rtasida avtomobil va dengiz transporti sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida, O‘zbekiston Respublikasi hukumati bilan XXR hukumati o‘rtasida temir yo‘l va transport sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida muzokaralar protokoli, XXRdan O‘zbekistonga tovarlar yetkazib berish uchun davlat krediti to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi hukumati bilan XXR hukumati o‘rtasida, madaniyat, ta’lim, sog‘liqni saqlash va sport sohasida hamkorlik qilish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi hukumati bilan XXR hukumati o‘rtasida bitim, O‘zbekiston milliy axborot agentligi va O‘zbekiston Agentligi bilan XXR davlat axborot agentligi Sin Xua o‘rtasida axborot ayirboshlash va hamkorlik qilish to‘g‘risida, O‘zbekiston Respublikasi teleradiokompaniyasi bilan XXR kinematografiya, televideniye, radio eshittirish vazirligi o‘rtasida televideniye va radio eshittirish soxasidagi muddaolar to‘g‘risida protokoli bor. Ushbu bitim va protokollar 13-mart 1992-mart qabul qilingan [1].

Shu tariqa boshlangan savdo munosabatlarining hajmi 2023-yilga kunga kelib 9 mlrd dollarni tashkil etmoqda. Shundan O‘zbekistonning eksport ulushi 2,6 milliard dollar, importi esa 6,4 milliard dollar bo‘lgan. [2]. Bu esa tomonlarning o‘zaro savdodan to‘la manfaatdor ekanligini ko‘rsatadi.

Taqqoslash uchun undan keyingi o‘rindagi Rossiyadan 6.2 milliard, Qozog‘istondan 3.2 milliard, Janubiy Koreyadan 2.3 milliard, Turkiyadan 1.7 Germaniyadan 1.1 milliard, Turkmanistondan 732 million, Hindistondan 655 million, Braziliyadan 553 million, Belarussiyadan 410 million dollarlik mahsulot import qilgan.



Foydalaniman Adabiyotlar.

1. Muminov Khusanboy Madaminjanovich, & Kodirjonov Omadjon Tavakkaljon Ugli. (2024). HISTORY OF DIPLOMATIC AND ECONOMIC RELATIONS BETWEEN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND THE PEOPLE'S REPUBLIC OF CHINA (1991-2016). *International Journal Of History And Political Sciences*, 4(02), 12–19.
<https://doi.org/10.37547/ijhps/Volume04Issue02-03>
2. Daryo.uz. URL: <https://daryo.uz/2024/01/23/2023-yildazbekistonning-xitoy-bilan-tovar-ayrboshlash-hajmi-515-foizgaosdi>
3. Silk Road Briefing. URL:
<https://www.silkroadbriefing.com/news/2023/01/24/china-the-primary-destination-for-uzbekistan-2022-exports/>